

**MEDIA MAKONIDA PSIXOLOGIK DINIY VA MADANIY TAHDIDLAR.**

*NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI POFESSIONAL  
TA'LIM VA SAN'AT FAKULTETI 1-KURS TALABASI  
ISMOILOVA NOZANIN BOTIRJON QIZI  
MA'NAVY ASOSLARI VA HUQUQ  
TA'LIMI KAFEDRASI  
ESHPO'LATOV OLIMJON TO'LOQIN O'G'LI.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy media makonida yuzaga kelayotgan psixologik, diniy va madaniy tahdidlarning mohiyati ularning shakkalanish omillari hamda jamiyat ongiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri keng yoritiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyasi jadal rivojlanishi natijasida media inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, u nafaqat axborot uzatish vositasi, balki kuchli ta'sir mexanizmi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotda psixologik tahdidlar doirasida manipulyatsiya, axborot bosimi, soxta axborot (feyk xabarlar) va ommaviy ongni boshqarish usullari tahlil qilinadi. Diniy tahdidlar kontekstida esa radikal g'oyalar, ekstremistik targ'ibot va diniy qadriyatlarning noto'g'ri talqin qilinishi masalalari ko'rib chiqiladi. Madaniy tahdidlar esa globallashuv jarayonida milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy identitetga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar orqali ochib beriladi. Shuningdek, maqolada media savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini himoya qilish orqali ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishga yo'llarni ochib beriladi. Mazkur tadqiqotlar natijasida jamiyatning axborot xavfsizligini ta'minlash va yosh avlodni zararli axborotlardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Media makon, psixologik tahdid, diniy tahdid, madaniy tahdid, globallashuv, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, manipulyatsiya, feyk axborot, ekstremizm, milliy qadriyatlar.

**Annotation.** This article extensively examines the nature of psychological, religious, and cultural threats emerging in the modern media space, the factors contributing to their formation, and their negative impact on public consciousness. As a result of the rapid development of information and communication technologies, media has become an integral part of human life, functioning not only as a means of information transmission but also as a powerful mechanism of influence. The study analyzes psychological threats such as manipulation, information pressure, misinformation (fake news), and methods of controlling public opinion. In the context of religious threats, issues such as radical ideas, extremist propaganda, and the

misinterpretation of religious values are discussed. Cultural threats are explored through factors that negatively affect national values, traditions, and cultural identity in the process of globalization.

Furthermore, the article outlines effective ways to counter these threats by enhancing media literacy, developing critical thinking, and protecting national and universal values. The findings of this research are significant for ensuring information security in society and protecting the younger generation from harmful information.

**Keywords.**Media space, psychological threat, religious threat, cultural threat, globalization, media literacy, information security, manipulation, fake news, extremism, national values.

Bugungi globallashuv davrida media makoni inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali axborot almashinuvi misli ko'rilmagan arajada tezlashdi. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda turli tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, psixologik, diniy va madaniy tahdidlar jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mediani psixologik tahdidlar orqali qarydigan bo'lsak, Media orqali inson ongiga ta'sir o'tkazish bugungi kunda keng tarqalgan hodisaga aylandi. Turli reklama, propaganda va manipulyativ axborotlar inson fikrini boshqarishga xizmat qiladi. Soxta axborotlar (feyk xabarlar) va axborot bosimi insonlarda stress, qo'rquv va noto'g'ri qaror qabul qilish holatlarini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoshlar bunday ta'sirlarga nisbatan zaifroq bo'ladi. Diniy tahdidlar. Media makonida diniy mazmundagi noto'g'ri va zararli axborotlar ha keng tarqalmoqda. Radikal va ekstremistik guruhlar internetdan o'z g'oyalarini targ'ib qilish vositalari sifatida foydanlanmoqda. Diniy qadriyatlarning noto'g'ri talqin qilinishi esa jamiyatda ixtilof va nizolarga sabab bo'lishi. Madaniy tahdidlar. Globallashuv jarayonida turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi kuchaydi. Bu holat bir tomondan ijobiy bo'lsa-da, boshqa tomondan milliy qadriyatlar va an'analarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Ommaviy madaniyatning haddan tashqari tarqalishi yoshlar ongida milliy identitetning zaiflashuviga sabab bo'lmoqda. Tahdidlarga qarshi kurashish yo'llari. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: Media savodxonlikni oshirish Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, Ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, Yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish kabi omillar bugungi kunda medi savodxonlik fanida katta xissa qo'shib kelmoqda. Albatta, psixologik manipulyatsiya usullari media makonida qanday ishlashi haqida batafsilroq to'xtalamiz. Bu usullar insonning ongi ostida ta'sir qilib unda sun'iy ehtiyojlar qo'rquv yoki noto'g'ri ishonchni shakillantiradi. Media makonidagi eng keng tarqalgan manipulyatsiya usullari: 1. "Pravoslav dumi" (Yoki bir xil ma'lumotning takrorlanishi) Inson miyasi bir xil ma'lumotni turli manbalardan (TV, Telegram,

Instagram, yangiliklar) qayta-qayta eshitsu, uning haqiqiylikiga ishonishni boshlaydi. Manipulyatorlar yolg'oni haqiqatga aylantirish uchun uni "shakar qiyomiga" o'rab, tinimsiz takrorlaydi.2. "Qo'rquv va vahima uyg'otish" Bu usul insonning mantiqiy fikrlashini o'chirib qo'yadi. "Shoshilinch!", "Dahshat!", "Ehtiyot bo'ling!" kabi sarlavhalar orqali inson hissiyotga beriladi. Vahima holatidagi inson ma'lumotni tahlil qilolmaydi va manipulyator taklif qilgan "najot yo'li"ga (masalan, noto'g'ri diniy oqimga yoki shubhali mahsulotga) ergashadi. Xulosa o'rnida: media manipulyatsiyasidan himolayalanishning yagona yo'li har qanday xabarni nima uchun bu menga ko'rsatilyapti va bu nima manfaatli degan savollar bilan tahlil qilishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Marshall McLuhan – Understanding Media: The Extensions of Man. New York, 1964.
2. Manuel Castells – The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996.
3. Neil Postman – Amusing Ourselves to Death. New York, 1985.
4. Noam Chomsky – Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda. New York, 2002.
5. UNESCO – Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris, 2011.
6. UNICEF – The State of the World's Children (Digital Age Report), 2017.
7. World Health Organization – Mental Health and Media Influence Reports. Geneva, turli yillar.
8. European Commission – Tackling Online Disinformation. Brussels, 2018.
9. Pew Research Center – Social Media and Fake News Studies, 2016–2022.
10. Oxford Internet Institute – Computational Propaganda Research, 2017–2023.
11. Axborot xavfsizligi asoslari – Toshkent, 2020.
12. Media savodxonlik asoslari – Toshkent, 2021.
13. Globallashuv va madaniyat – Toshkent, 2019.
14. O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi – Media sohasiga oid hisobotlar.
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – Media va kommunikatsiya fanlariga oid metodik qo'llanmalar.
16. Media Studies bo'yicha zamonaviy ilmiy maqolalar (Scopus, Google Scholar bazalari).
17. Communication Studies doirasidagi tadqiqotlar.
18. Internet manbalari: ishonchli ilmiy platformalar (Google Scholar, ResearchGate).